



**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



XORAZM VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-SENTABR



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi
68,3 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik hajmining ulushi
58,8 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
4 733,9 ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
110,9 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
9 330,0 mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
112,9 %

2023- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 330,0** mlrd so'mga yetib, taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,9** %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	9 330,0	112,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	491,7	123,9
Moliyaviy xizmatlar	2 379,8	138,9
Transport xizmatlari	1 978,4	103,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 849,9	101,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	284,1	107,2
Savdo xizmatlari	2 113,6	104,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	221,3	106,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	465,7	108,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	200,9	111,8
Ijara xizmatlari	148,2	93,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	365,6	106,5
Shaxsiy xizmatlar	325,9	105,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	138,6	100,0
Boshqa xizmatlar	216,2	109,7



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



5

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **22,6** %ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **3,9** %ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **24,5** %ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **4,1** %.


2023- yil yanvar-sentabr oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**138,9** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**123,9** %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**111,8** %) va boshqa xizmatlar (**109,7** %)da qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida boshqa xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**138,1** %), moliyaviy xizmatlarda (**123,2** %) o'sish kuzatilgan.

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



■ 2022- y. yanvar-sentabr ■ 2023- y. yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **22,6 %**ni tashkil etdi, bu esa **2 113,6** mlrd so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 831,3** mlrd so'mga yoki umumiy hajmning **24,5 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022- y.
yanvar-sentabr
Xizmatlar hajmi
1 831,3 mlrd so'm

O'sish sur'ati
107,0 %

Ulushi
24,5 %



2023- y.
yanvar-sentabr
Xizmatlar hajmi
2 113,6 mlrd so'm

O'sish sur'ati
104,6 %

Ulushi
22,6 %



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **74,5 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda




Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

9,9 %

74,5 %

15,6 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo ulushi **75,0 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 379,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 565,4** mlrd so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **25,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **21,0** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **814,4** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **138,9** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **123,2** % ga yetgan.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-sentabr

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,2 %**ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,3 %** darajada qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari moliyaviy
xizmatlar**

91,2 %

6,3 %

2,5 %

**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,3 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,4 %**ga to'g'ri kelgan.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

**2022- y.
yanvar-sentabr**

**392,5
mlrd so'm**

122,0 %

5,3 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

99,2 mlrd so'mga

**2023- y.
yanvar-sentabr**

**491,7
mlrd so'm**

123,9 %

5,3 %




2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **92,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. yanvar-sentabr



2023- y. yanvar-sentabr



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,0 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**374,0
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**465,7
mlrd so'm**

**2022- y.
yanvar-
sentabr**



**2023- y.
yanvar-
sentabr**

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **465,7** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,1 %**ni tashkil etdi.

110,7 %


O'sish sur'atlari, % da

108,1 %

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi **374,0** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida nisbatan o'sish **110,7 %** darajasida qayd etilgan.

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd so'm

2022- y. yanvar-
sentabr

205,7

2023- y. yanvar-
sentabr

284,1

2022- y. yanvar-
sentabr

2023- y. yanvar-
sentabr



O'sish
sur'ati, % da

2022- y. yanvar-
sentabr

114,6

2023- y. yanvar-
sentabr

107,2

2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **78,4** mlrd so'mga ortdi.



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2023- yil yanvar-
sentabr

81,3 %

18,7 %



18,1 %

81,9 %

**2022- yil yanvar-
sentabr**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

Yashash bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,3 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilda ularning ulushi **81,9 %**ni tashkil etgan.



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-sentabr

2023- y. yanvar-sentabr

154,6
mlrd so'm

**Xizmatlar
hajmi**

200,9
mlrd so'm

113,5 %

**O'sish
sur'ati**

111,8 %

2,1 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,2 %



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)**

	Umumiy hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, 2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	100,0	112,9
Urganch shahri	38,1	120,6
<i>Xiva shahri</i>	4,7	113,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	5,6	108,3
Gurlan	5,0	109,7
Qo'shko'pir	4,9	109,2
Urganch	7,5	107,8
Hazorasp	7,2	111,3
Tuproqqal'a	2,1	108,5
Xonqa	6,6	105,4
Xiva	5,3	107,0
Shovot	5,0	108,7
Yangiariq	4,2	104,2
Yangibozor	3,8	112,3

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **38,1 %** (2022- yilda **35,7 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida kuzatilgan – **2,1 %**.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2023- y.	2022- y.
Xorazm viloyati	9 330,0	112,9	113,5
Urganch shahar	3552,8	120,6	114,7
Xiva shahar	433,5	113,5	116,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	519,1	108,3	114,2
Gurlan	463,5	109,7	114,0
Qo'shko'pir	458,4	109,2	114,2
Urganch	703,6	107,8	108,2
Hazorasp	675,5	111,3	110,9
Tuproqqal'a	196,1	108,5	114,8
Xonqa	617,1	105,4	113,7
Xiva	494,8	107,0	113,3
Shovot	464,8	108,7	114,0
Yangiariq	394,7	104,2	113,2
Yangibozor	356,1	112,3	113,7

**) Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**4 733,9
ming so'm**

**Hajmning
o'sishi**

**878,3 ming
so'mga**

2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 733,9** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,9** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 855,6** ming so'mni tashkil etgan.

110,9 %

O'sish sur'ati

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 62-224-65-16